

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7879183>

**Mo'minova Sevara**

*Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti- davlatimiz rivoji,  
Har bir ishda ko'rinsin – yurtimning baxt iqboli.  
Mehnatsevar odamlar izlanishdan toymasin,  
Yurtimiz kelajagi har dam yorqin porlasin.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekistonning tabiiy sharoitlari o'rganiladi va meliorativ holatlarni yaxshilash usullari qo'llaniladi. O'zbekistonda meliorativ tadbirlar amalga oshirilishi keng yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Meliorativ tadbirlar, meliorativ geografiya, meliorativ usullar, agroiklimiy rayon*

Mamlakatimizdagi islohotlar dadil odimlarining sababi jahon tajribasiga tayangan holda o'z taraqqiyot va rivojlanish yo'limizni belgilab olganligimizda va bu yo'ldan og'ishmay, izchil bosqichma – bosqich borayotganligimizdadir. O'zbekiston taraqqiyoti yuksalishida har bir sohaning o'z o'rnini bor desak xato bo'lmaydi. Har bir sohadagi o'zgarishlar va yangiliklar o'zaro davlatimiz rivoji bilan bog'liq.

Ma'lumki, geografiya fani mazmuni kengayib, mukammallashib bormoqda. Geografiyaning tarmoqlari ham juda ko'p va keng tarqalgan. Bundan birini misol qilib keltiradigan bo'lsak, Meliorativ geografiya va meliorativ tadbirlarni amalga oshirilishi. Bu tarmoqning asosiy vazifasi shundan iboratki, yerlarni tubdan yaxshilash jarayonlaridir. Yer bizning tabiiy boyligimiz, yerlarimizni yaxshilash, yerlardan oqilona va samarali foydalanish barchamizning vazifamiz hisoblanadi.

Melioratsiya so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "yaxshilash" ma'nosini beradi. Melioratsiya o'zi aslida qadimdan shakllanib kelgan.

Melioratsiya qishloq xo'jaligida katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, iqtisodiyotda ham o'z o'rnini bor. Paxtachilik yakkahokimligi davrida yerlardan faqat paxta ekishda foydalanishgan. Paxtachilik tarmog'i shu darajada uyg'unlashib ketganki, har bir odamning tomorqasida ham paxtalar, uylarning tomida ham paxta ekilgan. Mana bu tarmoqning ixtisoslashuvi va uni insonlar hayotiga ham uzviy uyg'unlashuvi hisoblanadi.

O'zbekistonda meliorativ geografiya rivojlanib kelmoqda. O'zbekistonning tabiiy sharoiti dehqonchilik uchun, chorvachilik uchun va o'zaro meliorativ tadbirlar uchun ham juda qulay makon hisoblanadi. Mamlakatning tabiiy sharoitlarini o'rgangan holda, qayerda qanday meliorativ tadbirlar amalga oshirilishi belgilanadi. Meliorativ tadbirlar- yerning holatini yaxshilash uchun yerlarni sug'orish, ekinlarni ekish,

sho'rlarni yuvish, nihol o'tkazish, eroziya jarayonlarini bartaraf etish, tuproqning unumdorligini oshirish, ekinlarni suvga bo'lgan talabini qondirish, yer resurslaridan to'g'ri foydalanish kabi barcha ishlar kiradi.

Melioratsiyani tashkil qilgan barcha meliorativ tadbirlar amalga oshirilishi natijasida bunda ham bir necha tarmoqlar mustaqil bo'lib yuzaga chiqmoqda. Masalan, yer melioratsiyasi, suv va sug'orish melioratsiyasi, sho'r yerlar melioratsiyasi, tuproq melioratsiyasi, O'simliklar melioratsiyasi, iqlimiy melioratsiya kabi tarmoqlar mustaqil bo'lib yuzaga chiqmoqda. Biz O'zbekistonning tabiiy sharoitlarini o'rgangan holda meliorativ holatni yaxshilashning bir qancha usullarini qo'llaymiz. Masalan, meliorativ holatni yaxshilash uchun texnik, fizik, kimyoviy, madaniy, sun'iy, tabiiy, kartografik, aerokosmik va boshqa turlari bor. Endi biz texnik usulni qo'llashda yerni holatiga qarab barcha texnik vositalardan foydalanib, ularni amalga tatbiq etishimiz asosiy rol o'ynaydi. Bu asosan yerlarni qazish, tuproqni olish va hokazo ishlarni ekskavator yordamida bajarilishi texnik usulga misol bo'la oladi. Fizik usuldan esa ko'proq dalachilik ishlaridan foydalaniladi. Bu qanday bo'lishi mumkin, quyosh nurlarining yer yuziga ta'siri va tuproqning tarkibiga ta'sir etishi hamda fotosintez jarayonlari bilan bog'liq. Fizik nurash bunda asosiy omilni tashkil etadi. Endi kimyoviy usuldan foydalanganda yerni asosiy qismini tashkil etgan tuproqqa har xil kimyoviy moddalar va o'g'itlar solish yo'li bilan amalga oshiriladi. Mana shu yo'llar orqali yerning holati yaxshilanadi. Tuproq unumdorligini amalga oshirishda ko'proq biologik usul qo'llaniladi. Bu usulda tuproqqa tarkibida bo'ladigan har xil mikroorganizmlar, hayvon qoldiqlarining chirishi natijasida chirindi ya'ni gumusni hosil bo'lishi tuproqning unumdorligini oshiradi. Madaniy usul haqida gapiradigan bo'lsak, bu usuldan madaniylashgan o'simliklar va insonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniy o'simliklar inson tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat uchun xomashyo olish, chorva mollari uchun ozuqa tayyorlash, turarjoy hamda atrof muhitni ko'kalamzorlashtirish va boshqa maqsadlarda yetishtiriladigan o'simliklar, bularning turlari shakllari va navlari har xil bo'lib, ular yovvoyi turlarini xonakilashtirish orqali yaratilgan. Misol uchun mevali o'simliklarni kiritsak bo'ladi. Eng asosiy usul hisoblanadigan kartografik usuldan ham foydalanamiz. Bunda yerning holati yaxshi, o'rtacha yaxshi va yomon holatlarini bir-biriga taqqoslab, guruhlariga bo'lgan holda kartaga joylashtirib tasvirlashimiz mumkin. Misol uchun, Farg'ona vodiysida 4ta agroiqlimiy rayon shakllangan. Ular Shimoliy, Sharqiy, Janubiy va g'arbiy rayonlar. Vodiyning shimoli-sharqi, janubi-sharqi qismlari meliorativ jihatdan yaxshi yerlar hisoblanadi. Aksincha, shimoli-g'arbiy va g'arbiy qismlari nisbatan yaxshi emas. Hozirgi paytda meliorativ geografiya va yerlarni meliorativ holatini yaxshilash borasida juda ko'p izlanishlar olib borilyapti. Bu tarmoq umuman hayotimizga singib borgan va eng yetakchi sohalardandir. Bu ma'lumotlar oxirida bir narsani ta'kidlash kerakki, har bir inson o'zining yerlarini har doim, har xil usullar qo'llab, uni yaxshilab parvarish qilishi, ekinlardan to'g'ri foydalanishi, sug'orish ishlarini tartibini bilishi, oddiy issiqxonadan to'laqonli ravishda qanday foydalanishni bilishi joiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Karimov.I.A.Milliy davlatchilik ,Istiqlol mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida.T-1999
- 2.Xoliqov.R. Meliorativ geografiya. Farg'ona -2011
- 3.U.Norqulov.H.Sheraliyev. Qishloq xo'jaligi melioratsiyasi. T-2003
- 4.Shul'gin. Meliorativnaya geografiya. M-1980.
- 5.O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 2000-2005